

## GLAUKOMA KASALLIGI VA UNI DAVOLASH USULLARI



**Sotvoldiyev Abdugulom**

*Xo'jaobod Abu Ali ibn Sino nomidagi jamoat salomatligi texnikumi*

*Maxsus fani o'qituvchisi*

### **Glaukoma nima?**

Glaukoma – ko'ruv nervining shikastlanishiga olib keladigan ko'z kasalliklari guruhi bo'lib, ko'z ichki bosimi (KIB) oshishi sababli yuzaga keladi, agar davolanmasa ko'rish qobiliyatining yomonlashishiga olib keladi.


Glaukomaning «ko'rishning yuvosh o'g'risi» deb atashadi, chunki ko'rish qobiliyati va ko'rish maydonining yo'qotilishi odatda simptomlarsiz, sekin-asta va uzoq vaqt mobaynida yuz beradi. Bu qarish, glaukomaning oilaviy anamnezi va ba'zi bir kasalliklar yoki dorilarni qabul qilish bilan bog'liq.

Glaukoma ko'rishning qaytarilmas yo'qotilishi va ko'rlikning asosiy sababi hisoblan

### **Sog'lom ko'z**



### **Glaukomali ko'z**



### Glaukoma simptomlari:

Glaukomaning eng makkor jihati – uning patsient uchun simptomlarsiz kechishi. Uning mavjudligini faqat oftalmolog qabulida aniqlash mumkin.

Lekin, juda kamdan-kam hollarda bemorning o‘zi ba‘zi bir simptomlarni mustaqil sezishi mumkin:

- Ko‘zlardagi og‘riq
- Ko‘ngil aynishi
- Ko‘zning qizarishi
- Ko‘rishning to‘satdan yomonlashishi
- Yorug‘lik manbai atrofida doiralar yoki halqalar
- Parda tushishi

Glaukomaning keltirib chiqaruvchi omillar shu vaqtgacha ma‘lum emas. Lekin patologiya nasl bo‘yicha o‘tishi mumkinligi ma‘lum.

**Glaukoma** (yun. glaucos — och ko‘k, ko‘kimir-yashil), ko‘k suv, nazla — ko‘z kasalligi; asosiy belgilari: ko‘z ichi bosimining oshishi, ko‘ruv maydonining torayishi va ko‘ruv nervi diski atrofiyasi. Birlamchi, ikkilamchi va b. Glaukoma farq qilinadi. Birlamchi Glaukoma mustaqil kasallik bo‘lib, u ko‘z ichi bosimi boshqarilishi va ko‘z ichi suyuqligi chiqishining buzilishidan yuzaga keladi. Asosan 35—40 yoshdan oshgan odamlarda uchraydi. Ko‘z ichki burchagining holatiga qarab yopiq burchakli, ochiq burchakli va aralash burchakli shakllarda bo‘ladi. Yopiq burchakli Glaukomada ko‘pincha bemorning bir ko‘zi va boshining o‘sha tomoni dapqir-dapqir og‘rib qo‘yadi, ko‘z xiralashadi, yorug‘ga qaraganda yoysimon doira ko‘rinadi. Vaqt o‘tishi bilan ko‘z va peshonadagi og‘riq kuchayib, bemorning ko‘ngli aynib, qayt qiladi, ko‘zi qizarib yoshlanadi; ko‘z oldida joylashgan qon tomirlar kengayadi. Muguz parda xiralashadi, ko‘zning old qismi sayozlashadi, qorachiq kengayib, yorug‘dan torayish xususiyati yo‘qoladi, ko‘kimir-zangori rangga kiradi. Ko‘z ichi bosimi keskin oshib, ko‘z soqqasi qattiqlashadi. Glaukomaning o‘tkir xuruji ro‘y beradi. Ochiq burchakli

Glaukoma bilan xastalangan bemor anchagacha ko‘zidan shikoyat qilmasligi mumkin. Ko‘z ichi bosimi oshadi-yu, lekin og‘rigan ko‘z sog‘idan deyarli farq qilmaydi; bosim ortgan sari ko‘ruv nervi va to‘r parda ezilib, ularda qon aylanishi qiyinlashadi, natijada ko‘rish maydoni torayib, ko‘rish yomonlashadi. Aralash burchakli Glaukoma asosan gonioskopiya usuli bilan aniqlanadi.

Ikkilamchi Glaukoma ayrim ko‘z kasalliklarining (uveit, ko‘z gavhari kasalliklari, qon tomir kasalliklari, ko‘z soqqasining shikastlanishi, distrofiyasi va o‘smasi) asorati sifatida vujudga keladi. Tug‘ma va o‘smir yoshdagilar Glaukoma ko‘z ichki burchagining norasoligi va to‘qimalar rivojlanishidagi ayrim nuqsonlar tufayli paydo bo‘ladi.

Ko‘z ichi bosimi normada 18—26 mm simob ustuniga teng. Agar u 26 mm dan oshsa, maxsus tekshiruvlar o‘tkazib Glaukoma vaqtida aniqlash lozim. Kasallikning oldini olish uchun yoshi 40 dan oshgan kishilarning ko‘z ichi bosimi muntazam tarzda yiliga bir marta o‘lchanib turishi kerak. Ko‘z ichi bosimi oshsa, ko‘z yoki bosh og‘risa, ko‘rish yomonlashsa, darhol vrachga ko‘rsatish lozim.

Glaukomaning har bir shaklida boshlang‘ich, rivojlangan, o‘tib ketgan va terminal bosqichlar kuzatiladi. Glaukomaning o‘tkir xurujida ko‘z ichi bosimini tushiruvchi mahalliy va umumiy davo buyuriladi. Agar ko‘z ichi bosimi hadeganda tushavermasa (24 soat davomida) jarrohlik usuli qo‘llaniladi. Glaukomaning barcha turlarini davolash uchun avval doridarmonlar buyuriladi. Agar davolashga qaramay ko‘z ichi bosimi doimo oshib tursa, ko‘rish maydoni toraysa, lazer nurlari yoki mikroxirurgiya usullari bilan ko‘z operatsiya qilinadi. Bu usullar qancha erta qo‘llanilsa, ko‘rishni shuncha yaxshi va uzoq, muddat saqlash imkoniyati tug‘iladi. Glaukoma bilan xastalangan bemor ma‘lum tartibga rioya qilishi lozim. Ko‘proq sutli va sabzavotli ovqatlar tanovul qilish, mehnat sharoitini yengillashtirish, tunda bajariladigan ishni kunduzi va yorug‘ joylarda, vaqt-vaqti bilan dam olib qilish tavsiya etiladi. Asabiy (aqliy) va jismoniy zo‘riqish, boshni engashtirib ishlash, suyuqlikni ko‘p iste‘mol qilish, achchiq choy, kofe va spirtli ichimliklar ichish tavsiya etilmaydi. Glaukomaning oldini olishda dispanserizatsiya yo‘li juda qo‘l keladi, bunda kasallikni erta aniqlash va beqam ko‘st davolash mumkin. Glaukom bu ko‘z ichibosimining oshishi bilan tariflanadi.

### **Glaukomaning belgilari va diagnostikasi**

Glaukoma belgilari kasallikning turi va bosqichiga bog‘liq. Glaukomaning eng keng tarqalgan shakli, birlamchi ochiq burchakli glaukoma, dastlabki bosqichlarda hech qanday alomatga ega emas. Vaqt o‘tishi bilan lateral yoki periferik ko‘rishning asta-sekin yo‘qolishi rivojlanadi. Keyingi bosqichlarda markaziy ko‘rish sohasidagi narsalarni ko‘rish qiyin bo‘lishi mumkin.

Glaukomaning yana bir shakli, o‘tkir yopiq burchakli glaukomada og‘ir alomatlar mavjud, masalan:

- Kuchli bosh og'rig'i
- Ko'zda kuchli og'riq
- Ko'ngil aynishi yoki qayt qilish
- Loyqa ko'rish
- Yorug'lik manbalari atrofidagi halos yoki rangli halqalar
- Ko'zning qizarishi

Glaukoma tashxisini qo'yish uchun to'liq ko'z tekshiruvi tavsiya etiladi, bu KIB o'lchovi va optik nervni tekshirish, ko'rish testi, shox parda qalinligini o'lchash va dala ko'rish testini o'z ichiga oladi. Ushbu muolajalar glaukoma tufayli optik nervning shikastlanishi yoki ko'rish maydonining pasayishini aniqlashga yordam beradi.

### **Glaukomaning oldini olish**

Glaukomaning davolash KIBni kamaytirishga va optik nervlarning keyingi shikastlanishining oldini olishga qaratilgan. KIBni suvli oqimini ko'paytirish yoki dori vositalari, [lazer](#) yoki jarrohlik yordamida suvni ishlab chiqarishni kamaytirish orqali oldini olish mumkin.

Glaukoma dori-darmonlari kuniga bir yoki bir necha marta tomizilishi kerak bo'lgan ko'z tomchilari shaklida bo'ladi. Ular ko'zning tirnash xususiyati, allergik reaksiyalar, yurak urishi, nafas qisilishi yoki depressiya kabi yon ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Dori-darmonlarni shifokor tomonidan ko'rsatilgandek qabul qilish va dozalarni o'tkazib yubormaslik muhimdir.

Glaukomaning lazer bilan davolash ambulatoriya sharoitida lokal behushlik ostida amalga oshirilishi mumkin. Bu ko'zdan suyuqlikni drenajlashni yaxshilash uchun trabekulyar to'r kesiklar yaratishni o'z ichiga oladi. Lazer bilan davolash ochiq burchakli yoki yopiq burchakli glaukoma kabi ba'zi turdagi glaukoma uchun samarali bo'lishi mumkin. Jarayondan keyin KIB ko'payishi kabi yon ta'sirga ega bo'lishi mumkin.

Glaukomaning oldini olish uchun turmush tarzini o'zgartirish foydali bo'lishi mumkin. Bularga sog'lom ovqatlanish, muntazam jismoniy mashqlar, chekish va spirtli ichimliklarni iste'mol qilmaslik, stressni kamaytirish va quyoshdan himoya qilish kiradi. Ko'z salomatligi uchun zarur bo'lgan vitamin va minerallarni olish ham muhimdir.

### **Glaukomaning davolash**

Glaukomaning davolashning asosiy usuli ko'z ichki bosimini pasaytirish va me'yorlashtirish hisoblanadi, shu bilan biz glaukoma rivojlanishini sekinlashtirish va patsientlar hayot sifatini saqlab qolishimiz mumkin.

Glaukomaning davolashni ko'z tomchilari tayinlashdan boshlaydilar. Lekin agar Sizga glaukomaning erta bosqichida davolashning lazerli yoki jarrohlik usulini taklif

etsalar, bundan qo‘rqish kerak emas. Jahon yetakchi oftalmologlarining fikricha bunday yondashuv ko‘rishni saqlab qolish uchun eng samarali.

Tekshiruv natijalari davolashning qanday usuli eng maqbul ekanligini ko‘rsatadi. Va mutaxassislarimiz patologiya, uning shakli, bosqichiga bog‘liq holda Sizga davolash taktikasini taklif etadilar.

Glaukomaning davolashning hozirgi maqsadlari glaukوماتoz va nervlarning shikastlanishiga yo‘l qo‘ymaslik, shuningdek, minimal yon ta‘hiri bo‘lgan bemorlarning ko‘rish maydoni va umumiy hayot sifatini saqlab qolishdir.

Buning uchun tegishli diagnostika usullari va keyingi tekshiruvlar, shuningdek, ma‘lum bir bemor uchun davolanishni oqilona tanlash kerak. Ko‘z ichi bosimi (KIB) glaukomaning asosiy xavf omillaridan faqat biri bo‘lsa-da, uni turli farmatsevtik preparatlar va yoki jarrohlik usullari bilan kamaytirish hozirda glaukomaning davolashning asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Shuningdek, tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, marixuana ko‘z ichi bosimidan foydalanish. Birlamchi ochiq burchakli glaukoma va ko‘z ichi gipertenzivasi bo‘lgan odamlarni ko‘rib chiqish shuni ko‘rsatdiki, KIB-ni pasaytiradigan dori-darmonlarni davolash ko‘rish maydonining yo‘qolishining rivojlanishini sekinlashtiradi. Qon tomir oqimi va glaukوماتoz optik neyropatiyaning neyrodegenerativ nazariyalari turli xil neyroprotektiv terapevtik strategiyalarni, shu jumladan ozuqaviy birikmalarni o‘rganishga turtki bo‘ldi, ularning ba‘zilari hozirda klinisyenlar tomonidan foydalanish uchun xavfsiz deb hisoblanishi mumkin, boshqalari esa sinovdan o‘tkazilmoqda. Ruhiiy stress, shuningdek, ko‘rish qobiliyatini yo‘qotishning oqibati va sababi hisoblanadi, ya‘ni stressni boshqarish bo‘yicha treninglar, avtogenik treninglar va stressni boshqarishning boshqa usullari foydali bo‘lishi mumkin.

#### Asosiy adabiyotlar:

1. Sh.A.Po‘latova, G.S.Aripova, G.X.Mirzajonova va boshqalar “Kattalarda hamshiralik parvarishi” II qism. Toshkent, “Vneshinvestrom” nashriyoti, 2014 yil
2. Sh.A.Po‘latova, M.S.Yusupova “Glaznye bolezni” Toshkent, Ilm ziyo nashriyoti, 2012 god
3. F.S.Yuldasheva, S.M.Aripova. «Ko‘z kasalliklari». Toshkent, Cho‘lpon nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2014 yil.

#### Internet saytlari:

1. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)
2. [www.wikipedia.uz](http://www.wikipedia.uz)
3. [www.Lex.uz](http://www.Lex.uz)
4. [www.minzdrav.uz](http://www.minzdrav.uz)